

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.11/25.08.2022.I.24.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**MURTOZAYEV SARDORBЕК ABDIJALIL O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY  
INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA DAVLAT INSTITUTLARINING  
O‘RNI**

**08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Qo‘lyozma huquqida**  
**UO‘K: 332(575.1):330.322**  
**КБК: 65.263**  
**М-88**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on economic sciences**

**Murtozayev Sardorbek Abdijalil o‘g‘li**  
O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda  
davlat institutlarining o‘rni .....3

**Муртозаев Сардорбек Абдижалил угли**  
Роль государственных институтов в привлечении прямых иностранных  
инвестиций в экономику Узбекистана .....27

**Murtozaev Sardorbek Abdijalil ugli**  
The role of state institutions in attracting foreign direct investment into the  
economy of Uzbekistan .....53

**E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**  
Список опубликованных научных работ  
List of published scientific works.....59

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.11/25.08.2022.I.24.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI**

**MURTOZAYEV SARDORBEC ABDIJALIL O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY  
INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA DAVLAT INSTITUTLARINING  
O‘RNI**

**08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3564 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (uwed.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sirajiddinov Nishanbay**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**A’zam Sardor Erkin o‘g‘li**  
iqtisodiyot fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Ismailova Nilufar Sabitdjanovna**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi DSc.11/25.08.2022.I.24.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100077, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 54. Tel.: (99871) 267-39-50; faks: (99871) 267-09-00; e-mail: [rektorat@uwed.uz](mailto:rektorat@uwed.uz)).

Dissertatsiya bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100077, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 54. Tel.: (99871) 267-39-50; faks: (99871) 267-09-00; e-mail: [rektorat@uwed.uz](mailto:rektorat@uwed.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ - raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.R. Mavlanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**L.M. Tashpulatova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Sh.O. Sharifxo‘jayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) xalqaro kapital harakatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularni jalb etish va samarali foydalanish barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat korxonalarini texnologik modernizatsiya qilish hamda yangi ish o‘rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2024-yilda jahon bo‘ylab TTXI hajmi 11% ga oshib, 1,4 trln. AQSh dollariga yetdi, bu esa uning xalqaro iqtisodiy integratsiyadagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, barqaror rivojlanishni ta‘minlash uchun har yili xalqaro miqyosda 500 mlrd. AQSh dollari miqdorida davlat va xususiy moliyalashtirish zarur bo‘lib, uning asosiy qismi TTXI hisobidan qoplanishi kutilmoqda<sup>1</sup>.

Bugungi kunda dunyoda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun juda qattiq raqobat ketmoqda. Ushbu jarayonda davlat institutlarining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi siyosatni ishlab chiqish, investorlar uchun qulay huquqiy va tartibga soluvchi muhitni yaratish hamda ularning manfaatlarini himoya qilish mamlakatning investitsion siyosatining samaradorligini ta‘minlaydi. Shu bois, butun dunyo mamlakatlari TTXI oqimini oshirish va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishning muhim sharti hisoblangan institutsional islohotlarni jadallashtirishga alohida e‘tibor qaratmoqda.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida TTXIning jalb etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Shuningdek, bugungi kunda TTXI barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishning muhim omili sifatida e‘tirof etilmoqda. So‘ngi yillarda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo‘ldagi to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat‘iy qadamlar tashlanmoqda. Amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida 2016–2022-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga jami 49,1 mlrd. AQSh dollari miqdorida chet el investitsiyalari va kreditlari jalb etilgan bo‘lib, bundan 18,7 mlrd. AQSh dollarini TTXI tashkil etgan<sup>2</sup>. Shunga qaramasdan, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, bunda davlat institutlarining sifatini oshirishda keng islohotlarni davom ettirish dolzarb masalalardan bir hisoblanadi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Bizning asosiy maqsadimiz – O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir. Davlatimiz bozor munosabatlarini rivojlantirishni, investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinishini, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratishni, xususiy mulk daxlsizligi va sud tizimining mustaqilligi ta‘minlanishini o‘z zimmasiga olmoqda”<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> World Investment Report 2024. Preface. Guterres, António. United Nations Conference on Trade and Development, 2024. [Elektron resurs]. URL: <https://digitallibrary.un.org/record/4052094?ln=en&v=pdf>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlaridan asosida hisoblangan.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi. [Elektron resurs]. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7194>

Dissertatsiya ishi muayyan darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5495-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** TTXI mohiyati, uning shakllari va nazariy yondashuvlari, mezbon mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri hamda TTXI oqimiga ta’sir qiluvchi omillar xorijlik iqtisodchilar R.Lipsey<sup>4</sup>, I.Moosa<sup>5</sup>, R.Vernon<sup>6</sup>, G.Barkema, F.Vermeulen<sup>7</sup>, I.Faeth<sup>8</sup>, V.Denisia<sup>9</sup>, Ch.Kindleberger<sup>10</sup>, A.Musabeh<sup>11</sup>, P. Buckley<sup>12</sup>, P.Makoni<sup>13</sup>, J.Dunning<sup>14</sup>, S.Wilhelms, S.Morgan<sup>15</sup>, P.Pegkas<sup>16</sup>, T.Baiashvili, L.Gattini<sup>17</sup>, D.Wheeler, M.Ashoka<sup>18</sup>, E.Asiedu<sup>19</sup>, A. Bénassy-Quéré, M.Coupet, M.Thierry<sup>20</sup>, D.North<sup>21</sup>, R.La Porta, F.Lopez-de-

---

<sup>4</sup> Lipsey, Robert E., et al. "The role of foreign direct investment in international capital flows." *International capital flows*. University of Chicago Press, 1999. P. 307-362.

<sup>5</sup> Moosa, Imad. *Foreign direct investment: theory, evidence and practice*. Springer, 2002. P. 1.

<sup>6</sup> Vernon, R. *International Investment and International Trade in the Product Cycle*. *The Quarterly Journal of Economics*, 80, 1966. P. 190-207.

<sup>7</sup> Barkema, Harry G., and Freek Vermeulen. "International expansion through start-up or acquisition: A learning perspective." *Academy of Management journal* 41.1, 1998. P. 7-26.

<sup>8</sup> Faeth, Isabel. "Determinants of foreign direct investment—a tale of nine theoretical models." *Journal of Economic surveys* 23.1, 2009. P. 165-196.

<sup>9</sup> Denisia, Vintila. "Foreign direct investment theories: An overview of the main FDI theories." *European journal of interdisciplinary studies* 3, 2010. P. 54.

<sup>10</sup> Kindleberger, Charles Poor. "American business abroad", 1969. P. 11-12.

<sup>11</sup> Musabeh A. "Main theories of Foreign Direct Investment." *Research gate* 12, 2018. P. 4-5.

<sup>12</sup> Buckley, Peter J., and Mark Casson. *The future of the multinational enterprise*. Palgrave Macmillan, London, 1976. P. 33.

<sup>13</sup> Makoni, Patricia Lindelwa. "An extensive exploration of theories of foreign direct investment." *Risk Governance & Control: Financial Markets and Institutions* 5.2, 2015. P. 77-83.

<sup>14</sup> Dunning John H. "The eclectic (OLI) paradigm of international production: past, present and future." *International journal of the economics of business* 8.2, 2001. P. 173-190.

<sup>15</sup> Wilhelms Saskia KS, and Morgan Stanley Dean Witter. *Foreign direct investment and its determinants in emerging economies*. Washington DC: United States Agency for International Development, Bureau for Africa, Office of Sustainable Development, 1998. P. 38.

<sup>16</sup> Pegkas, Panagiotis. "The impact of FDI on economic growth in Eurozone countries." *The Journal of Economic Asymmetries* 12.2, 2015. P. 124-132.

<sup>17</sup> Baiashvili, T., and L. Gattini. "Impact of FDI on economic growth: The role of country income levels and institutional strength." *European Investment Bank*. Working Paper 2020/02, 2020. P. 16.

<sup>18</sup> Wheeler, David, and Ashoka Mody. "International investment location decisions: The case of US firms." *Journal of international economics* 33.1-2, 1992. P. 57-76.

<sup>19</sup> Asiedu, Elizabeth. "On the determinants of foreign direct investment to developing countries: is Africa different?" *World development* 30.1, 2002. P. 107-119.

<sup>20</sup> Bénassy-Quéré, A., Coupet, M., Thierry, M. *Institutional Determinants of Foreign Direct Investment*. *The World Economy*. Vol. 30 (5), 2007. P. 764-782.

<sup>21</sup> North D.C. *Institutions, institutional change and economic performance*. Cambridge university press, 1990

Silanes, A. Shleifer, R. Vishny<sup>22</sup>, T. Dahlstrom, A. Johnson<sup>23</sup>, J. Haidar<sup>24</sup>, O. Bissoon<sup>25</sup>, B. Anghel<sup>26</sup>, P. Kechagia, T. Metaxas<sup>27</sup>, S. Sabir, R. Anum, A. Kamran<sup>28</sup> va boshqa olimlar tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish, tartibga solishning ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha N. Oblomurodov<sup>29</sup>, B. Valiyev<sup>30</sup>, A. Vahobov<sup>31</sup>, A. Bekmuradov<sup>32</sup>, S. A'zam<sup>33</sup>, N. Ismailova<sup>34</sup>, B. Berkinov<sup>35</sup>, A. Isadjanov<sup>36</sup>, I. Mavlanov<sup>37</sup>, N. Sirajiddinov, S. Zakirova, G. Sultanova, L. Mingishev, I. Ixomjonov<sup>38</sup>, I. Butikov<sup>39</sup>, L. Tashpulatova<sup>40</sup>, N. Maxmudov<sup>41</sup>, J. Muinov<sup>42</sup>, N. Xaydarov<sup>43</sup>, N. Xashimova<sup>44</sup>, Sh. Yuldashev<sup>45</sup> va boshqalar chuqur izlanishlar olib borganlar.

---

<sup>22</sup> La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. W. Law and finance. *Journal of Political Economy*, 106(6), 1998. P. 1113-1155.

<sup>23</sup> Dahlstrom, T., Johnson, A. Bureaucratic Corruption, MNEs and FDI. Working Papers. Jonkoping International Business School, JIBS, 2007. P. 39.

<sup>24</sup> Haidar, J. I. Political stability and foreign direct investment: Evidence from developing countries. *Economic Modeling*, 68, 2018. P. 301-307.

<sup>25</sup> Bissoon, O. Can better institutions attract more foreign direct investment (FDI)? Evidence from developing countries. *International Conference on Applied Economics*, 2011. P. 59-70.

<sup>26</sup> Anghel, B. Do Institutions Affect Foreign Direct Investment? *Universidad Autynoma de Barcelona. Mimeo*, 2005. P. 37.

<sup>27</sup> Kechagia, Polyxeny and Metaxas, Theodore. FDI and Institutions in BRIC and CIVETS Countries: An Empirical Investigation, *Economies*, 10, issue 4, 2022. P. 1-23.

<sup>28</sup> Sabir, Samina, Anum Raffique, and Kamran Abbas. "Institutions and FDI: evidence from developed and developing countries." *Financial Innovation* 5.1, 2019. P. 1-20.

<sup>29</sup> Обломуродов Н. Н. Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг назарий асослари ва устувор йўналишлари: Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008. 14 б.

<sup>30</sup> Валиев Б. Б. Миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2017. 23-24 б.

<sup>31</sup> Вахобов А.В., Г.Х.Разиқова, Ш.Х.Хаджибакиев Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Т.: «Молия» 2011. 124 с.

<sup>32</sup> Бекмуратов А.Ш. Глобальные тренды на мировых финансовых рынках и проблемы привлечения технологических инвестиций для реализации промышленной политики Узбекистана, *Молия ва банк иши электрон илмий журнали*. №2, январь, 2016.

<sup>33</sup> Azam, S.E., Institute of Forecasting, and Macroeconomic Research. "Foreign Trade of Foreign-Invested Enterprises in Uzbekistan: Transformation-Related Issues." *Economic Analysis: Theory and Practice* 17.3, 2018. P. 515–538.

<sup>34</sup> Shermukhamedov A.T., Ismailova N. "Uzbekistan: growth of the investment climate in free economic zones" *European science*, no. 2 (44), 2019, P. 22-26.

<sup>35</sup> Беркинов Б.Б. Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар самарадорлиги. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. №5, 2015.

<sup>36</sup> Исаджанов А.А. Узбекистан: потенциал инвестиционного сотрудничества. Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан. №1, 2008.

<sup>37</sup> Мавланов И. Трансформация экономической дипломатии Узбекистана для реализации внешнеэкономических приоритетов Стратегии действий Республики Узбекистан на 2017–2021 гг. *Международные отношения, УМЭД*. №01, 2018. 62-73 с.

<sup>38</sup> Сиражидинов Н., Закирова С.А., Султанова Г.К., Мингишев Л.У., Илхомжонов И.И. Повышение конкурентоспособности экономики Узбекистана в условиях либерализации и углубления экономических реформ. Монография, Ташкент - "IQTISODIYOT" – 2021, 2021.

<sup>39</sup> Бутиков И. Л. Основные направления совершенствования государственного регулирования фондового рынка в условиях современного этапа развития экономики Узбекистана, *Экономика и финансы (Узбекистан)*. №. 9, 2017. 16-25 с.

<sup>40</sup> Ташпулатова, Л.М., Бакоев М.Т., Исмаилова Г.С., Джураева Р.А. Внедрение принципов эффективного государственного управления в интересах устойчивого развития в Узбекистане. *Право и управление. XXI век*, 17(4), 2022. 3-19 с.

<sup>41</sup> Махмудов Н.М. Инвестиции - ресурсный двигатель экономики, *Иностранные инвестиции в Республике Узбекистан*. - Ташкент, № 2, 2008.

<sup>42</sup> Муинов Ж, Федяшева Г. Прогнозирование инвестиционных процессов и механизмы дальнейшего улучшения инвестиционного климата. Отчет о научно-исследовательской работы за 2015-2017 гг., ИПМИ, 2017.

<sup>43</sup> Хайдаров Н.Х. Тўғридан-тўғри инвестициялар имкониятлари, Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали, №1, 2011.

<sup>44</sup> Хашимова Н.А. Агрегатный анализ динамики структуры инвестиционного потенциала Узбекистана. *Экономический вестник Узбекистана*. №5. 2016.

<sup>45</sup> Юлдашев Ш.Г. «Иностранные инвестиции как фактор экономического роста и либерализации национального воспроизводства Республики Узбекистан», диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук, 2001.

Mavjud tadqiqotlarda O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish, tartibga solishning ilmiy-amaliy masalalari batafsil o‘rganilgan bo‘lsada, O‘zbekiston iqtisodiyotiga TTXIning jalb qilishda institutsional omillar, ayniqsa, davlat institutlarining ahamiyati yoritilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining “Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sharoitida milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish masalalari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat institutlarining o‘rnini tahlil qilish asosida mamlakat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning mohiyati, shakllari va nazariy konsepsiyalarini nazariy-metodologik jihatdan asoslab berish;

qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning ta’sirini kompleks tahlil qilish;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda institutsional omillarning ahamiyatini aniqlash;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning global tendensiyasini tahlil qilish; institutsional islohotlar orqali xorijiy investitsiyalar uchun jozibador investitsion muhit yaratishning xorij tajribasini tahlil qilish;

institutsional omillarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi ta’sirini baholash;

O‘zbekistonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini hamda ularning holatini tahliliy ko‘rib chiqish;

milliy iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga oid normativ-huquqiy asoslar va mavjud institutsional muammolarni tahlil qilish;

to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

**Tadqiqot obyekti** sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish usullari va vositalari olingan.

**Tadqiqot predmeti** O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat institutlarining roli hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida ilmiy tavsiflash, tizimli va kompleks yondashuv, klassifikatsiyalash, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

“To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar” tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-noyabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ–598-sonli Qonunining 3-moddasida berilgan mavjud ta’rifga o‘zgartirish kiritish taklif etildi;

Rivojlanayotgan mamlakatlarning panel ma'lumotlari ekonometrik tahlili asosida davlat institutlari sifatini oshirish TTXI hajmini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Jumladan, Jahon Bankining Boshqaruv sifati indikatorlarining tartibga solish sifati va huquq ustuvorligi ko'rsatkichlarining 1 punktga oshishi TTXI oqimining mos ravishda 3,5 va 2,4 %ga oshirishi hisoblab chiqildi;

Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish, davlat institutlari samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotni jozibador investitsion makon sifatida targ'ib qilish kabi uchta asosiy yo'nalishdan iborat to'rt bosqichli yondashuvga asoslangan "investitsion muhitni yaxshilash chora-tadbirlar rejasi" ishlab chiqilgan;

Xalqaro ilg'or tajribaga muvofiq Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi uchun boshqaruv tuzilmasini mustahkamlash maqsadida strategik masalalarni va operatsion natijalarni nazorat qiluvchi Direktorlar kengashini joriy etish taklif qilindi hamda Agentlikning faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi operatsion faoliyatining yangi tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqildi;

TTXIning so'nggi yillardagi global tendensiya va dinamikasi batafsil tahlili asosida global qiymat zanjiri bilan yuqori darajada integratsiyalashgan avtomobilsozlik va elektrotexnika ishlab chiqarish hamda elektr energiya va gaz ta'minoti va aloqa va axborot xizmatlari tarmoqlari xorijiy investitsiyalar uchun jozibador sohalar bo'layotgani aniqlandi hamda O'zbekiston Respublikasi To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar Strategiyasini ishlab chiqishda mazkur tendensiyalarni inobatga olish taklif etildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston iqtisodiyotiga faol TTXIning jalb qilishda davlat institutlarining sifat va samaradorligini oshirish zarurati xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan so'rovnoma ma'lumotlari va xorijiy mamlakatlarning tajribasini tahlil qilish orqali isbotlandi;

Serbiya, Gruziya va Qozog'iston mamlakatlari so'nggi 20 yilda Jahon Bankining Boshqaruv sifati indikatorining huquq ustuvorligi, tartibga solish sifati va korrupsiyani nazorat qilish ko'rsatkichlarida eng ilg'or natijalarga va davlat institutlarining sifat o'sishiga erishgani aniqlangan hamda ularda amalga oshirilgan institutsional islohotlarning xorijiy investitsiyalar oqimiga bo'lgan ahamiyati xorijiy tajriba sifatida tahlil qilingan;

O'zbekistonning institutsional muhitini baholovchi ko'rsatkichlarining Markaziy Osiyo mamlakatlari: Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan qiyosiy tahlili olib borilgan hamda Markaziy Osiyo mintaqasida jozibador investitsion makonga aylantirishda davlat boshqaruvining hukumat samaradorligi, huquq ustuvorligi, korrupsiya ustidan nazorat, kamchilik investorlar himoyasi, mulk huquqi hamda tashqi savdoni erkinlashtirish yo'nalishlarida islohotlarni chuqurlashtirish muhimligi ko'rsatilgan;

Dissertatsiyaning ilmiy xulosalari va amaliy tavsiyalaridan TTXIning jalb qilishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkin;

Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mutasaddi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga TTXIning jalb etishni yanada faollashtirish va ulardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan hukumat qarorlari, maqsadli dasturlari va rag‘batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda foydalanish mumkin;

Tadqiqot materiallari oliy o‘quv yurtlarida “Iqtisodiyot nazariyasi”, “O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti”, “Jahon iqtisodiyoti”, “Xalqaro iqtisodiyot” o‘quv kurslarini o‘qitilishida muhim manba bo‘lishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuvlar va usullarning asoslanganligi, ma‘lumotlar bazasi rasmiy manbalarga asoslanib shakllantirilgani, shuningdek, tadqiqot natijasida berilgan xulosalar va takliflar mamlakatning investitsion muhitini yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish sohasidagi vakolatli tashkilotlar tomonidan chuqur o‘rganilganligi va tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati TTXI, ularning mamlakat iqtisodiyotiga ta‘siri hamda unga ta‘sir etuvchi omillarni tahlil qilish bilan bog‘liq keyingi tadqiqotlarda foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini tegishli vazirlik va idoralar tomonidan TTXI faoliyatini baholashda, sohadagi muammolarni aniqlashda, shuningdek, TTXIning keng jalb qilishda institutsional islohotlarni chuqurlashtirishga doir dasturlar, kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston iqtisodiyotiga TTXIning jalb qilishda davlat institutlarining o‘rnini baholash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Dissertatsiya ishining birinchi ilmiy yangiligidan xorijiy investitsiyalar faoliyatini tartibga solib turuvchi qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2024-yil 24-oktabrdagi 02/6-236-sonli ma‘lumotnomasi);

Dissertatsiya ishining ikkinchi ilmiy yangiligidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘rta uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF–101-sonli Farmoni loyihasi uchun takliflar shakllantirishda hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-maydagi 390-sonli qarorining 1-ilovasida belgilangan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining tuman (shahar) bo‘limlarining vazifalari hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokida investitsiya loyihalarining o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishida to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash hamda ularni hal etish yuzasidan tezkor choralar ko‘rish orqali jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish, investitsiya dasturlarini amalga oshirishning sifat va samaradorlik mezonlariga asoslangan baholash tizimini amalda tatbiq etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2024-yil 24-oktabrdagi 02/6-236-sonli

ma'lumotnomasi; Toshkent shahar Bektemir tumani hokimiyatining 2024-yil 1-noyabrdagi 05/137-sonli ma'lumotnomasi);

Dissertatsiya ishining uchinchi ilmiy yangiligidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining 49-maqсадida belgilangan mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish maqsadi doirasida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda hamda "Toshkent Jan Mone nomidagi Yevropa tadqiqotlari bo'yicha ilg'or tajriba markazi" loyihasi doirasida Yevropa mamlakatlarini institutsional muhitini yaxshilash bo'yicha tajribalarini o'rganish, O'zbekiston uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ilmiy-tahliliy materiallarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2024-yil 24-oktabrdagi 02/6-236-sonli ma'lumotnomasi; Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining 2024-yil 26-oktabrdagi 01/3-2554-sonli ma'lumotnomasi);

Dissertatsiya ishining to'rtinchi ilmiy yangili Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi faoliyati samaradorligini oshirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Farmoni 2-ilova 49-maqсадida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda hamda "Toshkent Jan Mone nomidagi Yevropa tadqiqotlari bo'yicha ilg'or tajriba markazi" loyihasi doirasida tashkillashtirilgan xorijiy va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlari materiallari hamda ilmiy-tahliliy materiallarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2024-yil 24-oktabrdagi 02/6-236-sonli ma'lumotnomasi; Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining 2024-yil 26-oktabrdagi 01/3-2554-sonli ma'lumotnomasi);

Dissertatsiya ishining beshinchi ilmiy yangilidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 26-maqсадida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda, ya'ni 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida hamda O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchilari va konsullari bilan yaqin hamkorlikda TTXI va ilg'or texnologiyalarini jalb etish, hududning savdo-iqtisodiy, moliyaviy-investitsiyaviy va ilmiy-texnik imkoniyatlarini mustahkamlash choralari amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining 2024-yil 24-oktabrdagi 02/6-236-sonli ma'lumotnomasi; Toshkent shahar Bektemir tumani hokimiyatining 2024-yil 1-noyabrdagi 05/137-sonli ma'lumotnomasi);

Dissertatsiya ishining ilmiy yangiliklari hamda ishlab chiqilgan tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi tomonidan PQ-4135, PQ-459, PF-5495, PF-158, PF-37-son qaror va farmonlarning ijrosini ta'minlashda, Agentlik

faoliyatida belgilangan vazifalarni bajarishda, O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturlarini ishlab chiqish jarayonida yangi yondashuv va mexanizmlarni joriy etishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining 2024-yil 7-noyabrdagi 329-sonli ma’lumotnomasi);

Dissertatsiya ishi xulosasi, ilmiy natijalari va amaliy tavsiyalaridan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti tomonidan xorijiy davlatlar kontekstida jahon iqtisodiyoti, jahon siyosati, xalqaro savdo va investitsiyalarni jalb qilishda zamonaviy iqtisodiy diplomatiyaning dolzarb muammolarini va tendensiyalarini o‘rganish hamda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olish borish hamda axborot-tahliliy hujjatlar, ilmiy materiallar va tavsiyalar tayyorlashda foydalanilgan (Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti huzuridagi Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar institutining 2024-yil 30-oktabrdagi 213-sonli ma’lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy konferensiyalarda, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 14 ta ilmiy ish nashr qilingan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy jurnallarda 5 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta maqola e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 199 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, dissertatsiyaning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida TTXIning mohiyati, nazariy yondashuvlari va ularni qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri hamda TTXIn jalb qilishda institutsional omillarning ahamiyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlar, uslubiy yondashuvlar tahlil qilingan.

Izlanishda tasdiqlandiki, TTXI tobora zamonaviy global dunyoda iqtisodiy o‘sish va rivojlanishning muhim omili bo‘lib bormoqda. O‘zaro bog‘langan va raqobatbardosh global bozorda mamlakatlar o‘rtasida yangi ish o‘rinlarini yaratish,

zamonaviy texnologiyalar transferi, infratuzilmani rivojlantirish va umumiy iqtisodiy farovonlik uchun TTXIga muhim drayver sifatida qaraladi.

Xalqaro tashkilotlar hamda xorijlik va mahalliy olimlarning bergan ta'riflarini o'rganish va tahlil qilish asosida "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar" tushunchasiga xalqaro amaliyotga mos va xalqaro standartga javob beradigan quyidagicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi:

*To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar – chet el investorlari tomonidan milliy iqtisodiyotda yangidan tashkil etilgan yoki faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi birlik ustidan nazoratga ega bo'lish va ularning boshqaruvida sezilarli ta'sir ko'rsatish orqali doimiy manfaatdorlikni o'rnatish maqsadida amalga oshiriladigan, moliyaviy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlardan iborat xalqaro investitsiya turi.*

Bizning tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatadiki, transmilliy korporatsiyalarning xorijiy bozorlarni eksport orqali emas, balki TTXI shaklida o'zlashtirish tendensiyalarining kuchayishi ushbu sohani o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirgan. Natijada, tadqiqotchilar tomonidan TTXI mohiyatini, uning vujudga kelish omillarini va milliy hamda global iqtisodiyotga ta'sirini tushuntiruvchi nazariyalar ishlab chiqila boshlandi.

Xususan, tadqiqotda 1976-yilda Jon Danning tomonidan ishlab chiqilgan *xalqaro ishlab chiqarish eklektik paradigmasi (eklektik paradigma)*<sup>46</sup> TTXIning oldingi nazariyalari o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirishga asoslangani sababli eng muhim nazariyalardan biri degan xulosaga kelingan. Mazkur nazariyada qabul qiluvchi mamlakatdagi institutlarning sifati va ularning investitsion muhitga ta'siri muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Institutlar insonlar bir-biri bilan qanday munosabatda bo'lishini belgilab beruvchi qoidalar hisoblanadi. Iqtisodiyot doirasida institutlarning maqsadi insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni belgilovchi barqaror asoslarni yaratish orqali noaniqlikni kamaytirishdan iboratdir. D.Nort o'z tadqiqotida rasmiy (qoidalar, qonunlar va konstitutsiya) va norasmiy institutlarni (norasmiy-umumiy qabul qilingan konvensiyalar, xulq-atvor qoidalari) farqlab bergan. D.Nortga ko'ra, institutsional asos rasmiy qoidalar, norasmiy cheklovlar va har ikkalasining amal qilinishi ustidan nazorat va majburlovning mavjudligidan iboratdir<sup>47</sup>.

Iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan TTXIga ta'sir etuvchi omillar va uning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili asosida TTXIni jalb qilishda institutsional omillarning ahamiyati yuqori ekanligi hamda TTXIning qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirining samaradorligi qabul qiluvchi mamlakatdagi davlat institutlarining sifati bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

TTXI uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim omili bo'lgan innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga yordam beradi. S.Adams tomonidan olib borilgan tadqiqotda TTXI qabul qiluvchi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga

<sup>46</sup> Dunning, John H. The eclectic (OLI) paradigm of international production: past, present and future. International journal of the economics of business 8.2, 2001. P. 173-190.


<sup>47</sup> North, D. C. Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge university press, 1990.

ikki asosiy yoʻl, yaʼni ichki kapital hajmini oshirish hamda yangi texnologiyalar, marketing va boshqaruv koʻnikmalari, innovatsiyalar va ilgʻor tajribalarni transfer qilish orqali samaradorlikni oshirish orqali hissa qoʻshishi koʻrsatilgan<sup>48</sup>.

Mazkur tadqiqotda biz TTXI jalb qilishda institutsional muhitning taʼsirini oʻrganishda institutsional muhit sifatida rasmiy institutlarni tushunamiz. Rasmiy institutlar yozilgan qonunlar hamda ijro etuvchi hokimiyat, qonun ishlab chiquvchi parlament va ularning ijrosi ustidan nazorat oʻrnatuvchi sud tizimi faoliyatini oʻz ichiga olgani sababli tadqiqotimizda rasmiy institutlarni *davlat institutlari* sifatida bayon etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning **“Institutsional islohotlarni takomillashtirish orqali toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilgʻor tajribasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida TTXIning global tendensiyasi, samarali institutlarni rivojlantirish orqali TTXI uchun jozibador investitsion muhit yaratishning xorij tajribasi tahlil qilingan hamda institutsional omillarning TTXIning jalb qilishdagi taʼsiri panel maʼlumotlar asosida “fixed effect” modeli orqali baholangan.

TTXI tendensiyalari tahlili asosida TTXI oqimi boʻyicha eng yuqori darajada oʻsish 1990- va 2000-yillar oʻrtasida kuzatilgan boʻlib, ushbu davrda oʻrtacha global TTXI oqimi oʻsish darajasi 15,3 %ni tashkil etganligi aniqlangan.



**1-rasm. 1990–2023-yillar oraligʻida global TTXI oqimi (mlrd. AQSh dollarida)<sup>49</sup>**

Mazkur oʻsishda jahon xoʻjaligida xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi, global qiymat zanjirining yuzaga kelishi natijasida jahon xoʻjaligining bir-biriga oʻzaro bogʻliqligining oshishi asosiy omil boʻlib xizmat qilgan degan xulosaga kelingan.

<sup>48</sup> Adams, Samuel. Can foreign direct investment (FDI) help to promote growth in Africa? African Journal of Business Management 3.5, 2009, P. 178.

<sup>49</sup> UNCTADSTAT maʼlumotlar bazasi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqirozdan so‘ng, rivojlangan mamlakatlarda TTXI oqimlari avvalgi yigirma yilga qaraganda ko‘proq pasayishlarni boshdan kechirgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa TTXI oqimi o‘shishda davom etgan. Natijada, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga TTXI oqimi o‘rtasidagi tafovut kamayib borgan hamda 2014-yilda mazkur tafovut deyarli nolga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2020- va 2021-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar hattoki rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ko‘proq TTXIning qabul qilgan. Global TTXI oqimi 2023-yilda investorlarda iqtisodiyot va iqtisodiy taranglikning ta‘siri borasidagi noaniqlik sababli kamaydi, bu rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ta‘sir qilgan. Global TTXI oqimi so‘f o‘shishda barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarning ahamiyati yuqori bo‘lganligi aniqlangan.

Quyidagi jadvalga ko‘ra, 1990–2023-yillar davomida TTXI hajmi rivojlangan mamlakatlarda 2,7 marta o‘sgan bo‘lsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich 25,8 martani tashkil etgan. Rivojlangan mamlakatlarning mintaqalar kesimida qaraganda eng yuqori o‘shish mos ravishda 5,5 va 6,4 marta o‘shish bilan Osiyo va Okeaniya hamda Amerika mintaqalariga to‘g‘ri kelgan. Shu tahlilni rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida qilganda, barcha mintaqalarda yuqori o‘shish bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

### 1-jadval

#### 1990–2023-yillarda global TTXI oqimi: rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar hamda mintaqalar kesimida (mlrd. AQSh dollarida)<sup>50</sup>

Yillar	1990	1995	2000	2005	2010	2015	2020	2021	2022	2023
<b>Rivojlangan mamlakatlar</b>	171,3	228,4	1134,0	630,5	761,3	1322,7	319,2	745,7	426,2	464,4
Amerika	56,0	68,0	380,9	130,5	226,7	511,3	174,1	427,1	378,5	361,3
Osiyo va Okeaniya	12,6	18,6	42,3	-5,9	52,0	47,7	64,3	99,7	130,5	70,1
Yevropa	102,7	141,7	710,8	505,8	482,7	763,7	80,8	219,0	-105,9	16,5
<b>Rivojlanayotgan mamlakatlar</b>	33,6	116,7	222,7	322,8	629,6	740,9	643,9	836,6	929,6	867,4
Afrika	2,8	5,7	10,4	29,3	47,2	57,9	39,0	83,0	54,5	52,6
Amerika	8,5	29,8	79,8	77,2	160,8	152,8	86,2	134,5	195,8	193,2
Osiyo va Okeaniya	22,2	81,2	132,5	216,3	421,6	530,2	518,8	619,1	679,2	621,6


So‘nggi yillar TTXI tendensiyasi tahlili asosida TTXI qabul qiluvchi mintaqalar sifatida Yevropa o‘z jozibadorligini yo‘qotib borayotgani, Amerika AQShning barqaror iqtisodiy rivojlanishi fonida o‘zining jozibadorligini saqlab qolgan bo‘lsa ham, hozirda investorlar Osiyo va Okeaniya mintaqasiga o‘z sarmoyalarini kiritishda eng jozibador mintaqalar sifatida qarashayotgani aniqlangan.

Sanoatlar kesimida amalga oshirilgan tahlilga ko‘ra, 2017–2023-yillar davomida transchegaraviy birlashish va o‘zlashtirish (M&A) operatsiyalar hajmi

<sup>50</sup> UNCTADSTAT statistik ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

bo'yicha *avtomobilsozlik*, metall va metall buyumlar, qog'oz va qog'oz buyumlar, savdo, transport va saqlash, *axborot va aloqa* va professional xizmatlar sanoatlarida o'sish kuzatilgan bo'lsa, e'lon qilingan grinfild investitsiyalar hajmi bo'yicha *elektronika va elektr jihozlari*, *elektr energiya va gaz ta'minoti* va *axborot va aloqa* sanoatlarining xorijiy investorlar uchun jozibadorligi oshib borgan.

Quyidagi rasmdan ko'rishimiz mumkinki, jahon TTXI hajmida elektrotexnika, avtomobilsozlik, elektr energiya va gaz ta'minoti, axborot va aloqa tarmoqlariga kirib kelgan TTXIning ulushi yuqori hamda investitsion jozibador tarmoqlar sifatida o'sishda davom etmoqda.



**2-rasm. Elektrotexnika, avtomobilsozlik, elektr energiya va gaz ta'minoti, axborot va aloqa tarmoqlarining global TTXI hajmidagi ulushi, (foizda)<sup>51</sup>**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ko'plab mamlakatlar o'z davlat institutlarining sifatini va samaradorligini oshirish maqsadida faol ravishda siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda.

Tahlil davomida 2002–2022-yillar oralig'ida boshqaruv ko'rsatkichlari orasida eng muhim hisoblangan **“huquq ustuvorligi”** (rule of law), **“tartibga solish sifati”** (regulatory quality) va **“korrupsiyani nazorat qilish”** (control of corruption) indeklari bo'yicha pozitsiyasini eng ko'p yaxshilagan Gruzija, Serbiya va Qozog'iston mamlakatlar tanlab olinib (2-jadval), qayd etilgan o'sishning asosiy omillari bo'lgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar batafsil tahlil qilindi hamda mazkur ijobiy institutsional o'zgarishlarning mamlakatlarni investitsion jozibadorligiga bo'lgan ta'siri baholandi.

<sup>51</sup> UNCTADSTAT statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

**2000–2022-yillar oralig‘ida huquq ustuvorligi, tartibga solish sifati, korrupsiyani nazorat qilish indekslarida yuqori o‘shirishga erishgan mamlakatlar<sup>52</sup>**

Mamlakatlar	Huquq ustuvorligi	Tartibga solish sifati	Korrupsiyani oldini olish	Aholi jon boshiga YaIM (AQSh dollarida)	O‘rtacha iqtisodiy o‘shirish sur‘ati (2000-2023, yillik%)	Jahon Bankining daromadga ko‘ra klassifikatsiyasi*
Gruziya	+	+	+	8283.7	5.66 %	o‘rtadan yuqori
Ruanda	+	+	+	1010.3	7.45 %	o‘rtadan past
Serbiya	+	+	+	12281.5	3.32 %	o‘rtadan yuqori
Angola	+	+	+	2308.2	4.56 %	o‘rtadan past
Qozog‘iston	+	+	+	12918.9	5.86 %	o‘rtadan yuqori
Liberiya	+	+		771.9	3.58 %	past
Litva	+	+		27786	3.98 %	yuqori
Makao MMH	+	+		67476.5	7.39 %	yuqori
Estoniya	+		+	30133.3	3.44 %	yuqori
Latviya	+		+	22502.8	3.55 %	yuqori
Ruminiya	+		+	18404.3	3.72 %	yuqori
Chexiya		+	+	31591.2	2.47 %	yuqori

“+” – indekslarda eng yuqori o‘shirishga erishgan top 20 talikka kirgan mamlakatlar belgilangan.

Tadqiqot davomida institutsional omillarning TTXIga ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan empirik tahlilda dastlab jami 127 ta mamlakatning statistik ma‘lumotlari tahlil qilindi. Ushbu mamlakatlar tanlovi statistik ma‘lumotlarning mavjudligi va yetarliligi asosida amalga oshirildi. Keyinchalik, Jahon Banki tasnifiga ko‘ra rivojlanayotgan davlatlar toifasiga mansub bo‘lgan 55 ta mamlakat uchun alohida tahlil o‘tkazildi. Tadqiqot 2002–2022-yillarni qamrab olib, institutsional omillarning TTXIga ta‘sirini aniqlash maqsadida mustaqil ko‘rsatkichlar *institutsional va iqtisodiy ko‘rsatkichlar* kabi ikki asosiy guruhga ajratib tahlil qilindi. Institutsional ko‘rsatkichlar sifatida Jahon Bankining Boshqaruv sifati indikatorlaridan foydalanilgan.

Mazkur empirik tahlil davomida institutsional omillarning TTXI oqimiga ta‘siri panel ma‘lumotlar tahlilining *o‘zgarmas effekt* (fixed effect) modeli

<sup>52</sup> Jahon Bankining Davlat boshqaruvi sifati ko‘rsatkichlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

\* <https://blogs.worldbank.org/en/opendata/world-bank-country-classifications-by-income-level-for-2024-2025>

yordamida baholandi. Model tanlashda Hausman testi qoʻllanilib, uning natijalari oʻzgarmas effekt modelining maʼlumotlar toʻplamiga mosligini tasdiqladi.

Model quyidagicha taklif etiladi:

$$TTXI_{it} = f(\text{institutsional omillar, iqtisodiy omillar}) \quad (1)$$

Ekonometrik koʻrinishi:

$$\ln FDI_{it} = \alpha_0 + \beta(INS_{it}) + \gamma(MAC_{it}) + \varepsilon_{it} \quad (2)$$

Bu yerda  $\ln FDI_{it}$  – TTXI hajmining logarifmik qiymati,  $INS_{it}$  – institutsional omillar vektori,  $MAC_{it}$  - iqtisodiy omillar vektori hisoblanadi. Tahlilda institutsional omillarga Jahon Bankining Boshqaruv sifati indikatorlari olingan: davlat organlarining hisobdorligi (VOACC), siyosiy barqarorlik (POLs), hukumat samaradorligi (GOVEF), tartibga solish sifati (REGQ), huquq ustuvorligi (ROL), korrupsiya ustidan nazorat (COC). Ekonometrik tahlilda iqtisodiy omillar sifatida aholi jon boshiga YaIM ( $\ln GDPPC$ ), inflyatsiya (INF), savdo ochiqligi (TRADE), aholi soni (POP) koʻrsatkichlaridan foydalanilgan.

Institutsional koʻrsatkichlar oʻrtasidagi yuqori darajadagi multikollinearlikni hisobga olib, har bir institutsional koʻrsatkich alohida tenglamalarda kiritildi. Bu yondashuv omillar orasidagi oʻzaro bogʻlanishlarni minimallashtirish va har bir institutsional omilning TTXI oqimiga boʻlgan alohida taʼsirini aniqroq oʻlchash imkonini beradi.

$$\ln FDI_{it} = \alpha_0 + \beta_1 COC_{it} + \gamma_1 \ln GDPPC_{it} + \gamma_2 INF_{it} + \gamma_3 TRADE_{it} + \gamma_4 \ln POP_{it} + \varepsilon_{it} \quad (2.1)$$

$$\ln FDI_{it} = \alpha_0 + \beta_2 GOVEF_{it} + \gamma_1 \ln GDPPC_{it} + \gamma_2 INF_{it} + \gamma_3 TRADE_{it} + \gamma_4 \ln POP_{it} + \varepsilon_{it} \quad (2.2)$$

$$\ln FDI_{it} = \alpha_0 + \beta_3 REGQ_{it} + \gamma_1 \ln GDPPC_{it} + \gamma_2 INF_{it} + \gamma_3 TRADE_{it} + \gamma_4 \ln POP_{it} + \varepsilon_{it} \quad (2.3)$$

$$\ln FDI_{it} = \alpha_0 + \beta_4 ROL_{it} + \gamma_1 \ln GDPPC_{it} + \gamma_2 INF_{it} + \gamma_3 TRADE_{it} + \gamma_4 \ln POP_{it} + \varepsilon_{it} \quad (2.4)$$

$$\ln FDI_{it} = \alpha_0 + \beta_5 VOACC_{it} + \gamma_1 \ln GDPPC_{it} + \gamma_2 INF_{it} + \gamma_3 TRADE_{it} + \gamma_4 \ln POP_{it} + \varepsilon_{it} \quad (2.5)$$

$$\ln FDI_{it} = \alpha_0 + \beta_6 POLS_{it} + \gamma_1 \ln GDPPC_{it} + \gamma_2 INF_{it} + \gamma_3 TRADE_{it} + \gamma_4 \ln POP_{it} + \varepsilon_{it} \quad (2.6)$$

Bu yerda:

$i = 1, \dots, N$  — mamlakatlar indekslari, bunda;

$N_1 = 127$  — tahlilda ishtirok etgan barcha mamlakatlar uchun;

$N_2 = 55$  — rivojlanayotgan mamlakatlar uchun;

$t = 1, \dots, T$  — vaqt davri,  $T = 2002$ – $2022$ -yillarni qamrab oladi;

$\beta_1 - \beta_6$  — institutsional omillar va TTXI oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatuvchi parametrlar;

$\gamma_1 - \gamma_4$  — makroiqtisodiy omillar va TTXI oʻrtasidagi bogʻliqlikni koʻrsatuvchi parametrlar;

$\varepsilon$  — xatoliklar.

“O‘zgarmas effekt” model natijalari<sup>53</sup>

Ko‘rsatkichlar	2.3-model	2.4-model	2.5-model
REGQ	0.528*** (0.141)		
ROL		0.390*** (0.150)	
VOACC			0.234* (0.129)
lnGDPPC	1.350*** (0.161)	1.445*** (0.161)	1.599*** (0.146)
INF	-0.0037* (0.002)	-0.0045** (0.002)	-0.004** (0.002)
TRADE	0.0098*** (0.002)	0.0099*** (0.002)	0.010*** (0.002)
lnPOP	2.665*** (0.249)	2.560*** (0.249)	2.493*** (0.247)
Konstanta	-33.895*** (3.755)	-32.916*** (3.779)	-33.171*** (3.796)
Kuzatuvlar soni	1,068	1,068	1,068
Determinatsiya koeffitsiyenti	0.263	0.255	0.253
Mamlakatlar soni	55	55	55

Qavslar ichidagi standart xatoliklar: \*\*\* p<0.01, \*\* p<0.05, \* p<0.1

127 ta mamlakat uchun institutsional omillarning TTXIga bo‘lgan ta‘sirini baholash maqsadida amalga oshirilgan empirik tahlil natijalariga ko‘ra, barcha institutsional ko‘rsatkichlarning TTXI oqimiga ta‘siri ijobiy ekanligi aniqlandi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qilingan tahlil asosida *tartibga solish sifati, huquq ustuvorligi va jamoatchilik fikrini hisobga olish va davlat organlarining hisobdorligi (ushbu ko‘rsatkich 10 % statistik ahamiyatga ega, ya’ni p<0,10)* ko‘rsatkichlari rivojlanayotgan mamlakatlarga kirib kelayotgan TTXI hajmida muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatildi (3-jadval). Asosiy parametrlar aniqlangach, statistik ahamiyatga ega bo‘lgan modellar tanlab olindi va u quyidagi funksiya tenglamalarida aks etadi:

$$\ln FDI = -33.895 + 0,528*REGQ + 1,35* \ln GDPPC - 0,0037*INF + 0,0098*TRADE + 2,665*\ln POP \quad (3)$$

$$\ln FDI = -32.916 + 0,390*ROL + 1,445* \ln GDPPC - 0,0045*INF + 0,0099*TRADE + 2,560*\ln POP \quad (4)$$

“O‘zgarmas effekt” model natijalari (3) va (4) tenglamada keltirilgan. Modellashtirish natijasiga ko‘ra, *tartibga solish sifati* va *huquq ustuvorligi* ko‘rsatkichlarining 1 punktga oshishi (ya’ni -2,5 dan 2,5 oraliqda bo‘lgan institutsional ko‘rsatkichlar uchun 0,05 qiymatda oshish) TTXI oqimining mos ravishda 3,5 va 2,4 % ga oshishiga olib kelishi hisoblab chiqildi. (3) tenglamada aholi jon boshiga YaIM va aholi sonining 1 % oshishi TTXI hajmining mos ravishda


<sup>53</sup> Muallif tomonidan Stata dasturida “o‘zgarmas effekt” modeli natijalari asosida tayyorlangan.

1,35 % va 2,7 % o‘shishiga sabab bo‘lsa, savdo ochiqqligining 1 foizli birlik oshish TTXI hajmining 0,98 % o‘shishiga olib keladi. Shuningdek, inflyatsiya darajasining 1 foizli birlik oshishi TTXI hajmining 0,37 % kamayishiga olib kelishi aniqlandi. (4) tenglamada aholi jon boshiga YaIM va aholi sonining 1 % oshishi TTXI hajmining mos ravishda 1,445 % va 2,56 % o‘shishiga sabab bo‘lsa, savdo ochiqqligining 1 foizli birlik oshish TTXI hajmining 0,99 % o‘shishiga olib keladi. Shuningdek, inflyatsiya darajasining 1 foizli birlik oshishi TTXI hajmining 0,45 % kamayishiga olib kelishi aniqlandi (3-jadval).

Ekonometrik modelga muvofiq, mamlakatdagi institutsional muhitning ushbu jabhalariga yuz beradigan ijobiy o‘zgarishlar rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qilishini xulosa qilish mumkin.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo‘nalishlari”** nomli uchinchi bobida O‘zbekistonga kirib kelgan TTXIning hozirgi holati, milliy iqtisodiyotga TTXIning normativ-huquqiy asoslari va institutsional muammolari tahlil qilingan hamda TTXIni keng jalb qilishda institutsional islohotlarni chuqurlashtirish yo‘nalishlari va mexanizmi ishlab chiqilgan.

Statistik ma’lumotlar tahlili asosida 2016–2022-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga jami 49,1 mlrd. AQSh dollari miqdorida chet el investitsiyalari va kreditlari kirib kelgan bo‘lib, bundan 18,7 mlrd. AQSh dollari, ya’ni 38,12 % TTXI ekanligi aniqlandi. Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini tahlil qilganda so‘nggi yillarda chet el investitsiyalari va kreditlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim bo‘lgan kapitalning shakllanishida asosiy manba bo‘lib xizmat qilganini ko‘rishimiz mumkin.




**3-rasm. 2016–2022-yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelgan chet el investitsiyalari va kreditlari va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmlari, (mln. AQSh dollarida)<sup>54</sup>**

<sup>54</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O‘zbekistonga TTXIning hozirgi holati tahlili natijasiga ko‘ra, mamlakatga kirib kelgan chet el investitsiyalari va kreditlarning asosiy qismi bo‘lgan TTXI hajmi 2020-yilda Covid-2019 pandemiyasi natijasida tushganiga qaramasdan, so‘nggi yillarda o‘shish tendensiyasiga ega hisoblanadi. Biroq, uning o‘shish sur‘atlari o‘zlashtirilgan chet el investitsiyalari va kreditlardagi o‘shish sur‘atlariga qaraganda sekinroq bo‘lgan. Ya’ni chet el investitsiyalari va kreditlar hajmida uning ulushi so‘nggi 2016–2022-yillarda tushgan. Shunga ko‘ra, TTXI hajmidagi tendensiyalarining shunday davom etishi iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga erishishni sekinlashtirishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin.

TTXIning sanoatlar kesimidagi tahlilida 2016-yilda tog‘-kon sanoati, asosan, tabiiy gazni qazib olish faoliyati mamlakatga kirib kelgan asosiy TTXI (66,8 %) o‘ziga qabul qilganini, 2022-yilga kelib esa ishlab chiqariladigan sanoat mamlakatga kirib kelgan TTXIning 43 %i bilan peshqadam bo‘lib olganini ko‘rish mumkin. Bundan so‘nggi yillarda mamlakatda kirib kelgan TTXI ancha yaxshi diversifikatsiyalanganini, tabiiy gazni qazib olish faoliyatidan boshqa iqtisodiy faoliyat turlari ham faol xorijiy investitsiyalarni jalb qilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, eksport salohiyati yuqori bo‘lgan – mashinasozlik, elektrotexnika, metallurgiya, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarida asosiy kapitalni shakllantirish uchun TTXIning darajasi pastligicha qolmoqda. Mazkur tendensiya ushbu sohalarda qulay investitsiya muhiti yaratilmaganligi, xususan raqobat muhiti, xususiy mulk daxlsizligi, moliya bozorlari, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasida tizimli muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.



**4-rasm. Investitsion muhitga javobgar bo‘lgan hukumat institutlari va tashkilotlari<sup>55</sup>**

<sup>55</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

Shuningdek, izlanish asosida TTXIning yuqori texnologiyali va inson kapitaliga faol yoʻnaltirilmasligi mamlakatda yuqori darajadagi inklyuziv oʻsishga erishish va kambagʻallik darajasini qisqartirish kabi maqsadlarga erishish jarayonini xavf ostiga qoʻyishi mumkin degan xulosaga kelingan.

Ushbu tadqiqot doirasida Oʻzbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investitsion muhitni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan davlat institutlari, tashkilotlari va platformalarning keng qamrovli asoslari batafsil tahlil qilindi (4-rasm). Tadqiqot natijasida ushbu sohada mavjud muammolar aniqlanib, ularning samarali yechimlari taklif etildi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining faoliyat samaradorligini xalqaro ilgʻor tajriba asosida oshirish hamda agentlik huzurida investorlarga huquqiy kafolatlarni taʼminlash va ularning manfaatlarini himoya qilish maqsadida *Investitsiya ombudsmani* institutini tashkil etish dolzarb chora-tadbir sifatida tavsiya etildi.

Oʻrganish davomida Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda xorijiy investitsiyalar, jumladan, TTXIni jalb qilishni kuchaytirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilgan boʻlsa-da, investitsion muhitni yaxshilashda hali yechimini kutayotgan muammolar mavjud ekanligi aniqlandi. Jumladan:

Xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish va mamlakatni xorijiy investorlar uchun jozibador makon sifatida targʻib etish uchun milliy afzalliklar hamda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga mos TTXI strategiya ishlab chiqilmagan;

2019-yilda qabul qilingan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonun sohadagi avvalgi qonunlarni birlashtirgan boʻlsa-da, TTXIning tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar saqlanib qolgan va qonunda xalqaro standartlarga mos aniq tarif berilmagan;

#### 4-jadval

#### Oʻzbekistonning 2018–2022-yillardagi davlat boshqaruvi sifati indeklari (Worldwide Governance Indicators) koʻrsatkichlari<sup>56</sup>

Davlat boshqaruvi sifati indeklari	2018	2019	2020	2021	2022
Jamoatchilik fikrini hisobga olish va davlat organlarining hisobdorligi	-1,63 (6,3)*	-1,65 (6,3)	-1,53 (6,3)	-1,4 (12,6)	-1,33 (12,6)
Siyosiy barqarorlik va zoʻravonlikning yoʻqligi	-0,3 (35,9)	-0,3 (34,9)	-0,44 (32,1)	-0,25 (37,7)	-0,2 (39,6)
Hukumat samaradorligi	-0,62 (31,4)	-0,60 (31,4)	-0,62 (29,5)	-0,27 (40,5)	-0,33 (38,2)
Tartibga solish sifati	-1,14 (10)	-1,06 (11,9)	-1,0 (13,8)	-0,60 (31,9)	-0,55 (31,6)
Huquq ustuvorligi	-1,1 (12,9)	-1,08 (13,3)	-1,11 (12,9)	-0,92 (18,6)	-0,85 (21,7)
Korrupsiya ustidan nazorat	-1,08 (12,9)	-1,05 (15,2)	-1,07 (15,7)	-0,83 (22,4)	-0,76 (24,5)

Normativ-huquqiy hujjatlarda investitsion loyihalar boʻyicha umumiy yoʻnalishlar belgilangan boʻlsa-da, istiqbolli tarmoqlar roʻyxati aniq ajratib koʻrsatilmagan va Oʻzbekistonning ustunliklari yetarlicha asoslanmagan.

<sup>56</sup> Jahon Bankining Worldwide Governance Indicators maʼlumotlar bazasi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

\* Qavs ichidagi son mamlakatning ushbu koʻrsatkichda foiz oʻrni (percentile rank) bildiradi.

	MUAMMO	TAVSIYA	AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI	NATIJA
Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish	TTXI strategiyasining yo'qligi	Milliy taraqqiyot maqsadlariga muvofiq TTXI strategiyasini ishlab chiqish	Global TTXI so'nggi tendensiyalari va xususiyatlarini qamrab olgan "Turkiya to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar strategiyasi (2024-2028)" namunaviy andoza sifatida olinishi mumkin	Aniq investitsion siyosat yuritish imkoniyati
	Huquqiy va tartibga soluvchi tizimlarning noaniqligi	TTXI faoliyatini tartibga soluvchi normalarni yagona normativ hujjatga birlashtirish	"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonunini xalqaro qonunchilik standartlari asosida hamda ikki tomonlama investitsiya kelishuvlari (BIA) va xalqaro investitsiya shartnomalariga (IIA) muvofiqlashtirish uchun takomillashtirish	Xorijiy investorlar uchun huquqiy himoyani kuchaytirish va xavflarni kamaytirish
	Huquqiy va tartibga solish jarayonlarida ommaviy maslahatlashuvlar ning yetishmasligi	Jamoatchilik bilan maslahatlashish jarayonlarida shaffoflikni oshirish	Barcha qonun va normativ-huquqiy hujjatlarining ingliz tiliga tarjimai ham joylashtirilishi hamda <i>invest.gov.uz</i> saytida joylashtirilgan investitsion faoliyatga oid qonunchilik bazasini tushinarli va turli tillarda berib borish hamda har bir qonuniy hujjatlar uchun sharh tayyorlash	Qonun hujjatlarining shaffofligi oshadi, samoyadorlar orasida ishonch ortadi
	TTXI bo'yicha cheklavlari turli tarmoqlarni qamrab olgan qonunlarda tarqoq holda mavjud	Negativ ro'yxat ishlab chiqish va e'lon qilish, xorijiy investorlar uchun aniq qoidalarni joriy etish	"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonunning bir qismi sifatida xorijiy investorlar uchun bozor kirish cheklavlarini o'z ichiga olgan va muntazam ravishda ko'rib chiqiladigan "negativ ro'yxat"ni joriy qilish	Xorijiy investorlar uchun investitsiya qilish jarayonining osonlashishi va ishonchli muhit yaratish
Davlat institutlari samaradorligini oshirish	Davlat organlarining hisobdorligi va ochiq hukumat tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi	Davlat organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligi oshirish	Davlat organlari faoliyatini tahlil qilish va natijalarini jamoatchilikka taqdim etish orqali investorlarda ishonchni kuchaytirish hamda <i>e-hukumat</i> takomillashtirish	Investor uchun muhim bo'lgan siyosiy muhit barqarorligi
	Hukumat samaradorligi va tartibga solish sifati pastligi	Hukumat samaradorligi va tartibga solish sifatini oshirish	<i>Kamchilik investorlar himoyasini oshirish</i> , investitsiyalarni jalb qilish uchun <i>moliya bozorini diversifikatsiya qilish</i> va bankdan tashqari moliya institutlarini rivojlantirish, investitsiya nizolarini hal qilish uchun samarali va shaffof mexanizmlarni ( <i>arbitraj, mediatsiya</i> ) joriy etish, Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonlarini tezlashtirish	Milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshishi
	Huquq ustuvorligi va sud tizimining samaradorligi pastligi	Sud-huquq tizimida islohotlarni kuchaytirish	Sud tizimining samaradorligini va <i>sudlar qarorlarining shaffofligini</i> oshirish, intellektual mulk huquqi bo'yicha qonunchilikni xalqaro normalarga, jumladan <i>JST</i> va <i>TRIPS kelishuvlariga moslashtirish</i> , intellektual mulk huquqlarini boshqarish uchun <i>markazlashgan muassasa</i> tashkil etish, sud-huquq tizimlari to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish imkonini beruvchi " <i>O'zbekiston e-huquqiy platforma</i> " portalini ishga tushurish	Milliy iqtisodiyotda qonun ustuvorligini oshirish orqali xorijiy investorlarning mamlakatga bo'lgan ishonchini oshirish
	Korrupsiya ustidan nazorat mexanizmi samaradorligining pastligi	Korrupsiya qarshi samarali kurashish mexanizmini takomillashtirish	Korrupsiyaga qarshi mamlakat <i>strategiyasini</i> ishlab chiqish, davlat organlari faoliyatida shaffoflikni oshirish, korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini nazorat qilish va statistik ma'lumotlarni muntazam ravishda jamoatchilikka taqdim etish, korrupsiya to'g'risida anonim xabar berish uchun <i>xavfsiz axborot kanallarini yaratish</i>	Investitsion jozibadorlikni oshishiga xizmat qiladi
	Investor huquqlari va himoyasining amalda qo'llanilishi zaifligi	Investorlarning shikoyatlarini aniqlash va hal qilish uchun mustaqil shikoyat mexanizmini joriy etish	Investorlar uchun interaktiv ommaviy elektron platformani joriy etish, <i>Investitsiya Ombudsmani</i> institutini tashkil etish, <i>xalqaro arbitrajning</i> roli va vakolatini oshirish	Investorlar huquqlarini himoya qilish samaradorligi oshadi
Milliy iqtisodiyotni jozibador investitsion makon sifatida targ'ib qilish	Investitsion jozibadorligini targ'ib qilish sustligi	Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish agentligi faoliyati samaradorligini oshirish	Agentlik boshqaruv tuzilmasida <i>Direktorlar kengashini</i> joriy etish, Agentlik uchun aniq vakolatlar va boshqaruv tizimini belgilash, yillik maqsadlarni o'z ichiga olgan korporativ biznes-rejani ishlab chiqish, " <i>Proaktiv investitsiya targ'iboti</i> "ni kuchaytirish va maqsadli sektorlar bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish	Respublikaning global investitsiya makonida targ'ibotini oshirishga zamin yaratadi
	Investitsion jozibador moliyaviy iqtisodiy zonalarning mavjud emasligi	Xalqaro moliya markazini tashkil etish	Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish, markazda xalqaro huquq va biznesda keng qo'llaniladigan ingliz huquqiy ( <i>english law</i> ) tizimi joriy etish	Mamlakat investitsion jozibadorligini oshirib, xalqaro investorlar uchun qulay shart-sharoitlar va huquqiy kafolatlar taqdim etadi

**5-rasm. Uchta yo'nalishdan iborat to'rt bosqichli yondashuvga asoslangan "investitsion muhitni yaxshilash chora-tadbirlar rejasi"<sup>57</sup>**


Shuningdek, tadqiqotimizda turli xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining holatini va mintaqaga kirib kelgan TTXI hajmini tahlil qilish asosida investitsion muhitni oshirishda davlat institutlarining sifatini yaxshilash muhim vazifa ekanligi aniqlandi.

2018–2022-yillarda O'zbekistonning Jahon Bankini boshqaruv sifati indikatorlari bo'yicha tahlil asosida davlat institutlari samaradorligi, huquqiy barqarorlik va shaffoflikda sezilarli yaxshilanishlar mavjud bo'lsa ham, hali ham ko'plab sohalarda islohotlar to'liq amalga oshirilmagan va mamlakatning

<sup>57</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

investitsion jozibadorligini oshirish uchun muhim institutsional va iqtisodiy muammolar hal etilishi zarur degan xulosaga kelingan (4-jadval).

Institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va TTXIning jalb qilish bo'yicha strategik yo'nalishlar aniqlanishi zarur. Tadqiqot natijalari asosida, xorijiy investitsiyalarni tartibga solishga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish, davlat institutlari samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotni jozibador investitsion makon sifatida targ'ib qilish kabi uchta asosiy yo'nalishdan iborat to'rt bosqichli yondashuvga asoslangan "investitsion muhitni yaxshilash chora-tadbirlar rejasini" ishlab chiqildi. Har bir yo'nalishda mavjud muammolarni aniqlash, ularning yechimlarini belgilash va amaliyotga tadbiriq qilish mexanizmlarini ishlab chiqilib, kutilayotgan natijalar bilan birga tavsiya etilgan (5-rasm).



### 6-rasm. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining operatsion faoliyati uchun yangi tashkiliy tuzilmasi<sup>58</sup>

Shuningdek, mazkur chora-tadbirlar rejasining bir qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi xalqaro ilg'or tajribaga muvofiq operatsion faoliyatining yangi tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqildi (6-rasm).

Mazkur taklif etilayotgan yangi tashkiliy tuzilmada Agentlikni xorijiy investorlar bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash hamda faol targ'ibot ishlarini amalga oshirishda faoliyat bo'yicha javobgar jamoalar va ularning vazifalari aniq ochib berilgan. Mazkur ishlab chiqilgan tuzilmada mamlakatlar jamoasi O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligining boshqarmalariga moslashtirib tartiblangan<sup>59</sup>. Bunday tartiblash Agentlik bo'limlari vazifalarini Tashqi ishlar vazirligi faoliyati bilan, xususan, O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilari bilan muvofiqlashtirish hamda samarali o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritish imkonini beradi.

<sup>58</sup> Muallif tomonidan tayyorlangan.

<sup>59</sup> O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tuzilmasi. [Elektron resurs]. URL: <https://mfa.uz/uz/pages/structure>

## XULOSA

O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat institutlarining o'rnini tahlil qilish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotdan quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, TTXI bo'yicha yagona nazariya mavjud emas va dastlab makroiqtisodiy omillarga asoslangan yondashuvlar ustuvor bo'lgan. So'nggi yillarda esa, ayniqsa 1990-yillardan boshlab, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida institutsional omillarni o'rganishga e'tibor kuchaygan. Institutlarning rivojlanish darajasi va sifati TTXI oqimlaridagi hududiy farqlarni tushuntirishda muhim omil bo'lib, bu sohadagi tadqiqotlarning davom ettirilishi dolzarb hisoblanadi.

2. TTXIning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri ko'p jihatdan mamlakatdagi institutsional rivojlanish darajasi va boshqaruv sifati bilan bog'liq hisoblanadi. Mamlakat o'z institutsional islohotlarini kuchaytirib, samarali va yaxshi tashkil etilgan boshqaruv tizimini shakllantirsa, bu nafaqat xorijiy investitsiyalar hajmini oshiradi, balki ushbu investitsiyalardan olinadigan iqtisodiy samarani ham kuchaytiradi.

3. Jahon Banki tomonidan o'tkazilgan 2019-yilgi Global investitsiya raqobatbardoshligi va Global boshqaruv bo'yicha konsalting kompaniyasi Kearney tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan so'rovnomalar natijalarini tahlil qilish orqali rivojlanayotgan mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda institutsional omillarga e'tibor berishi kerakligi, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, qonunchilik va mulk huquqi himoyasini kuchaytirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash hamda hukumat tomonidan tartibga solishning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan institutsional islohotlarni kuchaytirishi muhimligi aniqlangan.

4. TTXIning global tendensiyalari tahlili asosida global qiymat zanjiri bilan yuqori darajada integratsiyalashgan avtomobilsozlik va elektrotexnika ishlab chiqarish hamda elektr energiya va gaz ta'minoti va aloqa va axborot xizmatlari tarmoqlari xorijiy investitsiyalar uchun jozibador sohalar bo'lib kelayotgani aniqlangan. Ushbu sohalarda qulay investitsiya muhitini yaratish, xususan zamonaviy bozor mexanizmlari va boshqaruv usullarini joriy etish, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini takomillashtirish mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Institutsional omillarning TTXIga bo'lgan ta'sirini baholash maqsadida amalga oshirilgan empirik tahlil natijalariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda tartibga solish sifati hamda huquq ustuvorligi ko'rsatkichlarining kirib kelgan TTXI oqimiga ta'siri ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan. Mamlakatdagi institutsional muhitning ushbu jabhalariga yuz beradigan ijobiy o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyotiga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishga xizmat qilishini xulosa qilishimiz mumkin.

6. So'nggi yillarda mamlakatga xorijiy investitsiyalarni, shu jumladan, TTXIni jalb qilishni kuchaytirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilganiga qaramasdan, investitsion qulay muhitni yaratish bo'yicha hukumat e'tibor berishi zarur bo'lgan muammolar saqlanib qolmoqda. Asosiy e'tibor qilishi zarur bo'lgan muammolardan biri mamlakatning samaradorligini belgilovchi institutlarning sifatini oshirish hisoblanadi. O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida o'zining

investitsion jozibadorligini oshirishda institutsional islohotlarni tezlashtirish, huquqiy tizimning shaffofligini va ishonchliligini mustahkamlash tavsiya etiladi.

Milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshirish, mamlakatga kirib kelalayotgan TTXI hajmini ko'paytirish hamda bunda muhim bo'lgan davlat institutlarining sifatini oshirish maqsadida quyidagi tavsiylar ishlab chiqildi:

1. TTXI so'nggi global tendensiyalari va xususiyatlarini qamrab olgan, milliy taraqqiyot maqsadlariga muvofiq TTXI strategiyasini ishlab chiqish umumiy investitsion siyosatni muvofiqlashtiradi hamda investitsiyalarni samarali jalb qilish va boshqarishni ta'minlaydi;

2. Investitsiyalarni jalb etish uchun *"istiqbolli tarmoqlarning shaffof tizimi"*ni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining rasmiy veb-sahifasida istiqbolli tarmoqlar ro'yxatini taqdim etish va ularning istiqbolliligi qaysi mezonlarga asoslanganligini shaffof va ishonchli metodologik tahlillar yordamida ko'rsatish zarurdir. Shu bilan birga, O'zbekistonning ma'lum tarmoqlar yoki sektorlardagi raqobat ustunliklarini xorijiy investorlarga aniq va asosli tarzda yetkazish lozim;

3. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi boshqaruv tuzilmasini mustahkamlash maqsadida strategik masalalarni va operatsion natijalarni nazorat qiluvchi Direktorlar kengashini joriy etish hamda Agentlik tomonidan *"Proaktiv investitsiya targ'iboti"*ni kuchaytirish va maqsadli sektorlar bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish mamlakat yuqori nisbiy afzallikka ega bo'lgan sohalarga xorijiy investorlarni faol jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda Agentlik faoliyatini O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining savdo-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchilari bilan muvofiqlashtirish hamda samarali o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritish muhim hisoblanadi;

4. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi huzurida investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yordam beradigan *"Investitsiya Ombudsmani"* institutini tashkil etish zarur. Ushbu institut investorlar va davlat o'rtasidagi huquqiy nizolarni oldini olish, shuningdek, investitsion muhitning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Investitsiya Ombudsmani, mavjud muammolarni tezkor va samarali hal etishda, shuningdek, investorlarning ishonchini oshirishda muhim rol o'ynaydi, bu esa mamlakatning investitsiya jozibadorligini kuchaytiradi;

5. O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonlarini tezlashtirishi va *"Rivojlanish maqsadida investitsiya jarayonlarini soddalashtirish kelishuvi"*ga qo'shilishi mamlakatni global savdo tizimi bilan integratsiyasini chuqurlashtirib, erkin va bashorat qilinadigan savdo sharoitlarini yaratadi. Bu esa xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni oshiradi. Ushbu kelishuvga a'zo bo'lish, o'z navbatida, investitsiya muhitini yaxshilash, protseduralarni soddalashtirish va yuqori darajadagi shaffoflikni ta'minlashga yordam beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.11/25.08.2022.I.24.03  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УНИВЕРСИТЕТЕ  
МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ДИПЛОМАТИИ**

---

**УНИВЕРСИТЕТ МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ДИПЛОМАТИИ**

**МУРТОЗАЕВ САРДОРБЕК АБДИЖАЛИЛ УГЛИ**

**РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ИНСТИТУТОВ В ПРИВЛЕЧЕНИИ  
ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ  
УЗБЕКИСТАНА**

**08.00.09 – Мировая экономика**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2023.4.Phd/Iqt3564.**

Диссертация выполнена в Университете мировой экономики и дипломатии.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) на веб-странице Ученого совета ([www.uwed.uz](http://www.uwed.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Нишанбай Сирожиддинов**

доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Аъзам Сардор Эркин угли**

доктор экономических наук, старший научный сотрудник

**Исмаилова Нилуфар Сабитджановна**

кандидат экономических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный университет  
востоковедения**

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_ 2025 г. в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.11/25.08.2022.I.24.03 по присуждению ученых степеней при Университете мировой экономики и дипломатии. Адрес: 100007, г. Ташкент, проспект Мустакиллик, 54. Тел.: (99871) 267-67-69; факс: (99871) 267-09-00; e-mail: [rektorat@uwed.uz](mailto:rektorat@uwed.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Университета мировой экономики и дипломатии (зарегистрировано под № \_\_\_\_\_). 100007, г. Ташкент, проспект Мустакиллик, 54. Тел.: (99871) 267-67-69; e-mail: [rektorat@uwed.uz](mailto:rektorat@uwed.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года  
(протокол реестра № \_\_ от «\_\_» \_\_ 2025 года).

**И.Р. Мавланов**

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**Л.М. Ташпулатова**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат экономических наук, доцент

**Ш.А. Шарифходжаев**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Прямые иностранные инвестиции (ПИИ) являются важнейшей составляющей международного движения капитала. Их привлечение и эффективное использование играет ключевую роль в обеспечении устойчивого экономического роста, производстве конкурентоспособной продукции с высокой добавленной стоимостью, технологической модернизации промышленных предприятий, а также создании новых рабочих мест. В 2024 году объем ПИИ в мире увеличился на 11%, достигнув 1,4 трлн долларов США, что подтверждает их значимость в международной экономической интеграции. Кроме того, для обеспечения устойчивого развития ежегодно требуется государственное и частное финансирование в размере 500 млрд долларов США на глобальном уровне, причем основная его часть, как ожидается, будет покрываться за счет ПИИ<sup>1</sup>.

В современном мире наблюдается жесткая конкуренция за привлечение иностранных инвестиций. В этом процессе решающую роль играет эффективность государственных институтов, поскольку разработка инвестиционно-стимулирующей политики, создание благоприятной правовой и нормативно-правовой среды для инвесторов, а также защита их интересов определяют результативность инвестиционной политики страны. В связи с этим страны по всему миру уделяют особое внимание ускорению институциональных реформ, которые рассматриваются в качестве ключевого условия для увеличения притока ПИИ и стимулирования экономического роста.

В Узбекистане ПИИ определено в качестве приоритетного направления для повышения конкурентоспособности экономики посредством ее модернизации и диверсификации. Кроме того, в настоящее время ПИИ рассматриваются как важный фактор обеспечения устойчивого экономического роста и ускорения социально-экономического развития регионов. В последние годы предпринимаются решительные шаги по коренному улучшению инвестиционного и делового климата, а также поэтапному устранению существующих барьеров. В результате проводимых системных реформ в 2016–2022 годах в экономику Узбекистана было привлечено в общей сложности 49,1 млрд долларов США в виде иностранных инвестиций и кредитов, из которых 18,7 млрд долларов составили ПИИ<sup>2</sup>. Несмотря на достигнутые результаты, дальнейшее улучшение инвестиционного климата и повышение качества государственных институтов остаются актуальными задачами. Как отметил Президент Ш.М. Мирзиёев:

---

<sup>1</sup> World Investment Report 2024. Preface. Guterres, António. United Nations Conference on Trade and Development, 2024. [Электронный ресурс]. URL: <https://digitallibrary.un.org/record/4052094?ln=en&v=pdf>

<sup>2</sup> Рассчитано на основе данных Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан.

“Наша основная цель заключается в том, чтобы Узбекистан стал надежным и долгосрочным партнером для иностранных инвесторов. Наше государство гарантирует развитие рыночных отношений, надежную защиту прав инвесторов, дальнейшее совершенствование благоприятной инвестиционной и деловой среды, создание более широких возможностей и условий для честной конкуренции, обеспечение неприкосновенности частной собственности и независимости судебной системы”<sup>3</sup>.

Диссертационная работа в определенной степени направлена на реализацию задач, предусмотренных указом Президента Республики Узбекистан №УП-5495 от 1 августа 2018 года “О мерах по кардинальному улучшению инвестиционного климата в Республике Узбекистан”, указом Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы”, а также “Стратегии Узбекистана — 2030”, утвержденной указом Президента Республики Узбекистан №УП-158 от 11 сентября 2023 года и другими нормативно-правовыми актами в данной области.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан.** Данное исследование проведено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники Республики Узбекистан I. “Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики”.

**Степень изученности проблемы.** Прямые иностранные инвестиции: их сущность, формы и теоретические подходы, а также влияние на экономику принимающей страны и факторы, влияющие на потоки ПИИ, нашли отражение в исследованиях иностранных экономистов, таких как Р.Липси<sup>4</sup>, И.Муса<sup>5</sup>, Р.Вернон<sup>6</sup>, Г.Баркема, Ф.Вермеулен<sup>7</sup>, И.Фаэт<sup>8</sup>, В.Денисия<sup>9</sup>, Ч.Кинделбергер<sup>10</sup>, А.Мусабах<sup>11</sup>, П.Бакли<sup>12</sup>, П.Магони<sup>13</sup>, Дж.Даннинг<sup>14</sup>,

---

<sup>3</sup> Выступление Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на III Ташкентском международном инвестиционном форуме. [Электронный ресурс]. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/7194>

<sup>4</sup> Lipsey, Robert E., et al. "The role of foreign direct investment in international capital flows." International capital flows. University of Chicago Press, 1999. P. 307-362.

<sup>5</sup> Moosa, Imad. Foreign direct investment: theory, evidence and practice. Springer, 2002. P. 1.

<sup>6</sup> Vernon, R. International Investment and International Trade in the Product Cycle. The Quarterly Journal of Economics, 80, 1966. P. 190-207.

<sup>7</sup> Barkema, Harry G., and Freek Vermeulen. "International expansion through start-up or acquisition: A learning perspective." Academy of Management journal 41.1, 1998. P. 7-26.

<sup>8</sup> Faeth, Isabel. "Determinants of foreign direct investment—a tale of nine theoretical models." Journal of Economic surveys 23.1, 2009. P. 165-196.

<sup>9</sup> Denisia, Vintila. "Foreign direct investment theories: An overview of the main FDI theories." European journal of interdisciplinary studies 3, 2010. P. 54.

<sup>10</sup> Kindleberger, Charles Poor. "American business abroad", 1969. P. 11-12.

<sup>11</sup> Musabeh, A. "Main theories of Foreign Direct Investment." Research gate 12, 2018. P. 4-5.

<sup>12</sup> Buckley, Peter J., and Mark Casson. The future of the multinational enterprise. Palgrave Macmillan, London, 1976. P. 33.

<sup>13</sup> Makoni, Patricia Lindelwa. "An extensive exploration of theories of foreign direct investment." Risk Governance & Control: Financial Markets and Institutions 5.2, 2015. P. 77-83.

<sup>14</sup> Dunning, John H. "The eclectic (OLI) paradigm of international production: past, present and future." International journal of the economics of business 8.2, 2001. P. 173-190.

